

KREDIT-MODUL TIZIMIDA O‘QUV JARAYONINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH

*Julboyev To‘lqin Abduvaliyevich, Jizzax davlat pedagogika universiteti,
kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi,
998933054156*

*Xolboyev Orif Nurmatovich, Jizzax davlat pedagogika universiteti, kimyo
va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi,
+998932938866*

*Ismatov Abduqodir, Jizzax davlat pedagogika universiteti, katta
o‘qituvchisi*

*Boboqulova Ozoda Vohidjon qizi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12741926>

Аннотация. Кредит-модул тизими oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim oluvchilarni o‘quv dasturidagi fanlardan modullarni tashkil etish va o‘lchash usulidir. Har bir modulga uni bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqt va kuch miqdoridan kelib chiqib, ma‘lum miqdordagi kreditlar hamda kreditlarni yig‘ish ta‘lim oluvchilarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Talabaning o‘quv fanidan dasturda belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘zlashtirilishi lozim bo‘ladi.

Аннотация. Кредитно-модульная система – это метод организации и измерения модулей по предметам учебной программы высших учебных заведений. В зависимости от количества времени и усилий, необходимых для прохождения каждого модуля, основными задачами обучающихся является получение определенного количества кредитов и кредитов. Определенная часть знаний, навыков и квалификации, указанных в программе по учебному предмету, студенту должна быть освоена.

Annotation. The credit-module system is a method of organizing and measuring modules from subjects in the curriculum of higher education institutions. Based on the amount of time and effort required to complete each module, a certain number of credits and credits are the main tasks of learners. A certain part of the knowledge,

skills and qualifications specified in the program from the student's academic subject must be mastered by the student.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, bilim, ko‘nikma, malaka, oliy ta‘lim, shaffoflik, moslashuvchanlik, mobillik

Ключевые слова: кредитно-модульная система, знания, навыки, квалификация, высшее образование, прозрачность, гибкость, мобильность

Key words. credit-module system, knowledge, skills, qualifications, higher education, transparency, flexibility, mobility

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu Konsepsiya ta‘lim jarayonining xalqaro miqyosda shaffof bo‘lishiga erishish, milliy ta‘lim tizimining dunyoning xohlagan boshqa ta‘lim tizimlari bilan mosligini ta‘minlash, dunyoning yetakchi universitetlari safidan o‘rin olish g‘oyalariga yo‘naltirilgan. Mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan [1]. Kredit-modul tizimi eng avvalo oliy ta‘lim muassasalari o‘quv dasturlariga erkinlik olib kirish, fanni o‘quv dasturlariga tanlov fanlarining kirib kelishi va oliy ta‘lim o‘quv dasturlarini zamon, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlariga nisbatan shakllantirish [2] hamda bundan tashqari, kredit-modul tizimi mamlakat oliy ta‘lim muassasalarining xorijiy ta‘lim muassasalari bilan aloqalarini yaxshilash, mahalliy universitetlarning xalqaro maydonda e‘tirof etilishiga erishish ehtiyojlari asosida shakllangan.

Kredit-modul tizimi, avvalo, mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimiga ta‘limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal, zamonaviy, hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligini hisoblanadi [3]. Fanning o‘quv dasturlari muayyan o‘qish natijalarini ko‘zlovchi turli fan va modullarga bo‘linib, kreditlarga bo‘lingan holada taqsimlanadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Talaba har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdordagi kreditlar to‘plab borishi va belgilangan miqdordagi kreditlarni to‘plagandan so‘ng, bakalavr yoki magistr darajasi beriladi. Amaldagi an’anaviy oliy ta‘lim tizimi ma‘lum bir sohada ommaviy ravishda bir yo‘nalishdagi kvalifikatsiyaga ega bo‘lgan kadrlarni ishlab chiqarishga moslashgan bo‘lib, unda yagona ta‘lim dasturi va muddati qat’iy belgilab berilgan.

Hozirgi kunda kredit-modul tizimlari ichida ESTC kredit- modul tizimi eng ko‘p foydalanilayotgan ta‘lim tizimi bo‘lib, Yevropaning 48 davlati oliy ta‘lim muassasalari

tomonidan turli darajada ta‘limni boshqarish usuli sifatida foydalanib kelinmoqda. ESTC ya‘ni Yevropa kredit-transfer tizimi mazmun-mohiyati jihatidan talabalar mobilligi ya‘ni talabalarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha boshqa mahalliy yoki xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida bilim va tajriba orttirishlari uchun qulay, talabalarning o‘z ustida yanada ko‘proq izlanishlari uchun mustaqil ta‘lim va tajriba olish uchun ko‘proq vaqt ajratilganligi bilan o‘ziga xosdir [4]. Ushbu kredit-modul tizimida kreditlar to‘planib borish effektiga ega ekanligi bois mobil talabalar va mobil bo‘lmagan talabalar uchun ham uning birdek qulayligi, uning barcha turdagi ta‘lim dasturlariga mos kelishi bilan ham ajralib turadi.

ESTC kredit-modul tizimi xorij va mahalliy barcha ta‘lim dasturlarini umumiy lashtirib ularni solishtirish, tushunish va o‘qish uchun yengilliklar olib kiradi [5]. Bundan tashqari, ESTC kredit-modul tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat: ta‘lim insonning butun hayotini qamrab olishi, ya‘ni talaba ta‘lim muassasasini bitirib ketgandan keyin ham muntazam ravishda yoki zarur hollarda ixtiyoriy ravishda mutaxassisligiga oid fan yangiliklari bilan tanishish, bilimlarini yangilash imkoniyati unga ta‘lim muassasasi tomonidan beriladi; vertikal integratsiya, inson ta‘limida turli bosqich va darajalarning izchilligi va aniqligi; umumiy o‘rta va professional ta‘limning o‘zaro muvofiqligi; ta‘lim tizimining shaffofligi; ta‘lim uslubi, mazmuni, vositasi, vaqti va makonining xilma-xilligi; ta‘lim olish uchun o‘quv fanini erkin tanlash imkoniyati; baholashda teng huquqlilik; ta‘lim oluvchining ta‘lim olish tartibi, usuliga qarab emas ta‘lim natijasiga qarab baholash; xorijda ta‘lim olib kelish imkoniyatlari kengaygani; zamonaviy jamiyatda olib borilayotgan reformalarga moslashuvchanligi; individual ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishda qayishqoqligi; ta‘lim oluvchilarni ta‘lim olishi uchun motivatsiya beradigan, har tomonlama rag‘batlantiradigan mexanizmning mavjudligi va boshqalardan iborat ekanligidir.

Kredit-modul tizimi talabaga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil etish, ta‘limda shaffoflikka erishish, ta‘limda moslashuvchanlikni kuchaytirish, talabalar mobilligini kuchaytirish kabi tamoyillar asosiga quriladi. Bu tamoyillar talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega [6]. Bunda ta‘lim olish vaqti tushunchasi talabaning darsda o‘tirgan vaqti bilan emas, balki uning fan bo‘yicha o‘qish va o‘rganishga sarflagan umumiy vaqtdan kelib chiqib belgilanadi. Ya‘ni, talabaning ta‘limi o‘qituvchining o‘qitishi uchun sarflagan soatlaridan kelib chiqib emas, balki talabaning o‘qishi uchun sarflagan soatlaridan kelib chiqib o‘lchanadi [7].

Respublikamizda oliy ta‘limning mobilligini ta‘minlash, iqtisodiyotning real sohalarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot-

kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Talaba fan bo‘yicha har bir modul uchun to‘plangan kreditlar soni odatda ma‘ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarga sarflangan vaqt miqdorini hamda talab qilinadigan mustaqil ta‘lim topshiriqlariga berilgan miqdorini to‘plashi kerak. Kredit-modul tizimini o‘rganishga moslashuvchan va modulli yondashuvni ta‘minlab, talabalarga fan bo‘yicha bir qator modullardan tanlash va o‘z daraja dasturini o‘z qiziqishlari, layoqati va intellektual aqliy qobiliyati hamda maqsadlariga moslashtirish imkonini beradi. Ta‘lim olishda shaffoflik asosiy mezon hisoblanadi. Kredit-modul tizimi dunyo bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalarida keng ko‘lamda qo‘llaniladi va u ta‘lim muassasalar bo‘yicha turli kurslar o‘quv yutuqlarini o‘lchash va solishtirishning standartlashtirilgan usulini taqdim etadi. Talabalarga auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta‘lim topshiriqlarini tashkillashtirish jarayonida o‘qituvchi talabalarga o‘quv fanida nazariy va amaliy topshiriqlaridan tashqari respublika va xorijiy jurnallaridagi mavzuga mos ilmiymaqolalarni tahlil qilish vazifalarini berish o‘rinli hisoblanadi.

Talaba topshiriqni bajarish jarayonida internet texnologiyalaridan foydalanib, mavzuga chuqur yondashgan holda ilmiy maqolalarni tahlil qilib tanqidiy o‘rganish orqali tahlil qilish jarayonida mavzu bo‘yicha dunyo miqiyosida bajarilayotgan ilmiy izlanishlar bilan tanishib borishi va berilgan mavzuni kengaroq o‘rganishga harakat qilishiga yo‘naltirish lozim. Bu usuldagi mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajargan talabalar ijodiy izlanish jarayonida juda yaxshi natijalarga erishishi, kelajakda ilmiy ishlarida ham yangi g‘oyalar izlab topishga, o‘zi ijodiy tezis va ilmiy maqola yozish jarayonida ko‘chirmachilikdan yiroq bo‘lishga harakat qiladi [8]. Bunday turdagi mustaqil ish topshiriqlarini shakllantirish, talabalarni shu asosda to‘g‘ri yo‘naltirish fan o‘qituvchisidan asosiy ma‘suliyatni talab qiladi. Talabalarning ilmiy-ijodiy ishlarini mustaqil ish topshiriqlari sifatida berilishi, loyiha ishlarini mustaqil ish sifatida taqdim etilishi talabalarda guruh bo‘lib ishlashni, birgalikda qaror qabul qilishni o‘rgatish, ma‘suliyatni his qilish ruxida tarbiyalash kabi sifatarni shakllantiradi.

Tadqiqotlar tahlili asosida pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv fanini o‘qitish kredit-modul tizimida talabalarda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish ahamiyatli hisoblanadi. Kredit ta‘lim tizimi o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, talabalarga o‘z o‘quv traektoriyalarini to‘g‘ri yo‘naltirish, muayan chegarada belgilash imkonini beradi, mustaqil va ijodiy bilim olishni rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi, o‘zlashtirilgan bilimlar hajmi kreditlarda o‘lchanib, talabalarni mustaqil

o‘rganishga undash mavzular bo‘yicha mustaqil ta‘limga ajratilgan ish bo‘lib, o‘quv-uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta‘minlash, testlar, nazorat ishlari kollokviumlar, referatlar, bayon va hisobotlar shaklida nazorat qilinadi. O‘quv fani dasturida ta‘limini o‘qitishni tashkil etish murakkab jarayon bo‘lib, uning sifatli va samarali yo‘lga qo‘yilishi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Eng avvalo, o‘qitish usul va metodlari, vositalari va o‘qitish texnologiyalari, fan o‘qituvchisining mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, dars va darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq holda yo‘lga qo‘yish, talabalar bilimni nazorat qilish, kuzatish va to‘g‘ri baholash, og‘zaki va yozma nutqni tugal shakllantirish asosiy maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son prezident farmoni.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan “Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom”. Toshkent, 2020 yil.
- 3.V.O‘rinov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. Qo‘llanma. El-yurt umidi jamg‘armasi va Respublika Oliy ta‘lim Kengashi bilan hamkorlikda. 2020 y. -64 b.
- 4.Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, TKTI, 2020.
- 5.Gulzhaukhar Kokebayeva, Gulnara Mussabalina. Experience of Kazakhstan Universities in Implementation of CreditModular System of Education. Procedia - Social and Behavioral Sciences 214 (2015) 645 – 650
- 6.Julboyev T.A. Kredit-modul tizimida talabalarda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmasini rivojlantirish. “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6/2023. TDPU.
- 7.Julboyev T.A. Methodology of chemical experiments modeling through computer program. “Tafakkur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnali 2023/4-son. JDPU.
- 8.G.Turdiyeva. Kredit-modul tizimidatalabalarning mustaqilishlarini bulutlitexnologiyalar orqali tashkiletish usullari. Monografiya. Buxoro: “SadriddinSalim Buxoriy” Durdona,2022.-116 b